- Ranglar haqida ma'lumotlar;

Bulardan tashqari tikuvchi dizaynerlarning hammasi rasm chizish asoslarini bilishi kerak. Shuningdek, tikuvchilikda bosh kiyimlardan tortib oyoq kiyimlargacha ularning rasmlarini chizish talab qilinadi. Shuning uchun ham dizaynerlar doimo eskizlar chizib borishlari lozim bo'ladi. Shundagina u kuchli tikuvchi dizayner bo'lib yetishishlari mumkin.

## II bob Tikuvchi dizaynerlarga maxsus rasm chizishga o’rgatishning shakl va usullari.

### 2.1 Tikuvchi dizaynerlarga maxsus rasm chizishga o’rgatish san’ati va uning turlari

Kashta tikish uchun gazlama bilan, ip buyumning nimaga mo`ljallanganiga, bezakning xarakteriga va tikish usuliga muvofiq tanlanadi. Kashta tikiladigan materialga muvofiq rangdagi ip tanlash kashtado`zlikda katta ahamiyatga yega. Bu kashtado`zdan katta mahorat va did talab qiladi. Kashtada foydalaniladigan iplar rangining o`zaro muvofiqligi ham kashtaning jozibador chiqishiga sabab bo`ladi. O`tmishda turli-tuman rangdagi matolarning kamligi sababli ko`pgina bezak kashtalari bugun mato sathini kashta bilan qoplab tikilgan. Hozirda so`zana, choyshab, zardevor kabi bezak buyumlari baxmal, shoyi, satin, shuningdek turli-tuman iplar ham ko`p. Bu kashtani jozibador chiqarishda rangdan keng foydalanish imkonini beradi. Kashtado`z kashta tikmoqchi bo`lgan kiyim shakliga, matosi rangiga qarab kashta nusxasini tanlashi kerak. Kashta iplari paxta tolasidan to`rt qavatli qilib, turli ranglarda tayyorlanadi, xira bo`ladi va 50 metrli kalava tarzida savdoga chiqariladi.

Mulina-yuqori sifatli paxta tolasidan tayyorlanadi. 12 qatli, maxsus ishlov berib sifati oshirilgan, chidamli bo`ladi. O`n yoki yigirma metrlik kalava tarzida chiqariladi. Ipak iplar-tabiiy va kimyoviy tolalardan tayyorlanadi. Pishitib-yigirilgan turli razmerdagi oq bo`yalgan bo`lib, kalava qilingan (40g li), g`altak va qog`oz patronlarga o`ralgan (50, 100, 200m uzunlikda) bo`ladi. 13-18-nomerli ipak iplar jun, zig`ir poyasidan, sun’iy tolalardan tayyorlangan iplar, mayin sim, zar ip, charmdan yensiz qilib tayyorlangan tasmalar bilan tikiladi.

**Nakshlarni chizmalar asosida gazlamalarga kuchirib chizish.**

Naqsh nusxasini har xil gazlamalarda har xil yo`llar bilan tushiriladi. Masalan, nusxa ko`chiradigan qog`ozlar axta yorug`lik yordamida, naqsh chizilgan qog`ozni gazlama ustidan ko`klab chiqiladi keyin bu qog`ozlar yirtib olinadi. Hamma hollarda ham oldin bezakni originaldan shaffof yoki millimetrli qog`ozga

uchi yaxshi ochilgan qalamda ko`chirib olinadi. Shundan keyin uni gazlamaga o`tkaziladi.




**Bezakni (naqsh) nusxa ko`chiradigan (kopirovka) yordamida ko`chirish.**

Gazlamani oldin dazmollab, tekis yuza (stol, taxta) ustiga yozib qo`yiladi, bunda gazlamaning asos va arqoq iplari qiyshayib qolmasligiga qarash kerak. Naqsh (tekis chok, suv chok, ustki chok va hokazo bilan tikiladigan) chizilgan shaffof qog`ozni gazlama ustiga qo`yib, to`g`nog`ich bilan qadab qo`yiladi. Nusxa ko`chiradigan qog`ozini to`q tomonini gazlamaga qaratib shaffof qog`oz tagiga qo`yiladi, uchi yaxshi ochilgan qalam bilan bezak ustidan chizib chiqiladi. Turli rangdagi nusxa ko`chiradigan qog`ozlar bo`lgani ma’qul, shunda och rangdagi gazlamaga to`q rangli (qora, ko`k, yashil), to`q rangli gazlamaga och rangli (oq,

sariq) nusxa ko`chiradigan qog`oz ishlatiladi. Bezakni ko`chirib bo`lingach nusxa kopirovka) qog`ozi olinib, bir tomondagi to`g`nog`ichlar chiqariladi va bezagi tekshiriladi. Shundan keyingina shaffof (kal'ka) qog`oz olib tashlanadi. Naqshni nusxa ko`chiradigan qog`oz bilan ko`chirishda bezakning chiziqlari qalin bo`lmasligini yodda tutish kerak, aks holda kashta tikayotganda gazlama va ip kir bo`lib qoladi. Shuning uchun ishlatiladigan kopirovka qog`ozidan foydalanish yaxshiroq, yangisini yesa ishlatishdan oldin quruq paxta yoki latta bilan artish kerak.

Bezakni yoruqqa tutib ko`chirish.

Yupqa shaffof gazlamalarga kashta gulni gazlama tagidan yoritish yo`li bilan ko`chirish mumkin. Tagiga lampa qo`yilgan oyna ustiga yaxshi ko`rinadigan kashta gulni qo`yib,uning ustiga yaxshi tortilgan chambarakga (kergiga) o`rnatilgan gazlama qo`yiladi. Gazlama tagida ko`rinib turgan kashta gulni uchi yaxshi ochilgan qalam bilan gazlamaga chizib olinadi.

Bezakni shaffof qog`oz yordamida ko`chirish.

Movut baxmal va yaltiroq gazlamalar ustiga kashta gulni shaffof qog`oz ustidan ko`klash yo`li bilan ko`chiriladi. Buning uchun bezakni shaffof qog`ozga ko`chirib olib, uni gazlama ustiga qo`yiladigan, butun chizig`i bo`ylab mayda zich qaviqlar bilan ninani oldinga yo`naltirib tikib chiqiladi. Keyin qog`oz yirtib tashlanadi.

Bezakni axta (andaza, ulgi) yordamida ko`chirish. Axta naqsh yoki biror rasmni shaffof (kal'ka) qog`ozga chizib, chiziq yo`llarini igna bilan teshib, buyum yuziga tushirish uchun tayyorlangan andoza.

Axtani tayyorlash uchun shaffof (xitoy) qog`ozga naqsh kompozisiyaga moslab simmetriya o`qi bo`yicha qog`ozni ikkiga, to`rtga va hokazo buklanadi. Buklamaning bir qismiga naqsh chiziladi.

Naqshli shaffof qog`ozni yumshoq gazlama yoki bir necha qavat gazeta qog`ozi ustiga qo`yib, naqsh chiziqlari ustidan 2-3 mm oraliqda igna bilan teshib chiqiladi. Naqsh nusxasi igna bilan teshib bo`lingandan keyin, shaffof qog`oz yopib yuboriladi, natijada axta hosil bo`ladi. Tayyor bo`lgan axtani ish yuzasiga

qo`yib, ustidan xoka urib va bosib yurgazib chiqiladi. Geometrik shakldagi bezakni teshma ko`chirishda uning kataklari vertikal va gorizontal chiziqlar kesishgan nuqtalarda teshib hosil qilinadi.

Kashta gul chizilgan shaffof qog`ozni kerosinlangan latta bilan artib, toza tomonini gazlamaga qaratib qo`yiladi-da, bir necha joyidan to`g`naladi. Movut yoki paxmog`ning (ochroq bo`lgani yaxshi) yoki paxtaning ustiga doka o`rab tampon qilinadi. To`q rangdagi gazlamaga bezakni ko`chirish uchun xokani bo`r yoki tish poroshogi aralashgan kerosinda ho`llab olinadi.

Shu maqsadda hyech narsa bilan aralashmagan tish pastasini ishlatish ham mumkin. Teshib ko`chirishda kashta gulning gazlamasidagi tasviri aniqroq, buzilmay chiqadi, bu ayniqsa kashta gulning bitta bo`lagini bir necha marta tikish kerak bo`lganda, mehnatni osonlashtiradi va tezlashtiradi. Andozalarni bir necha marta ishlatish mumkin. Bu axtalar (andoza) alohida paketda saqlangani tuzik. Naqsh chizilgan gazlama parchasiga tikiladigan, uni dumaloq chambarakka tortish qiyin bo`lsa, bu gazlama parchasining chetlariga ish tugagandan keyin so`kib tashlanadigan, hohlagan boshqa gazlama parchasini ulab qo`yish mumkin.

Matoda gullarning o`rni-o`rnini topib qo`yish, xususan buyumlardagi gullarni joylashtirib chizish g`oyatda murakkab va mas’uliyat talab ishdir. Kashtado`zlik san’atida nushasi va chizmakash hunari ustalarining o`rni beqiyos. Chevar har qancha mohir bo`lmasin, naqshlarni nushasi, chizmakashlar asosan atroflicha o`ylab ko`rib, o`z kasb-hunarlarining an’analari va spesifik xususiyatlari asosida chizib beradilar.

**Bezakni kattalashtirish (kichiklashtirish) usullarida chizish.**

Ba’zan kashta tikish uchun tanlangan bezak mo`ljallangan buyum kattaligiga to`g`ri kelmay, uni kattalashtirish yoki kichiklashtirish kerak bo`ladi. Buning uchun bezak ustiga ixtiyoriy kattalikdagi o`zaro teng kvadratlardan chiziladi. Bunda kvadratlar qancha mayda bo`lsa, bezakning nuqtalari shunchalik aniq ko`chiriladi va nusxasi ham oson chiziladi.

Millimetrni qog`oz yoki toza qog`ozga buyum kattaligidagi to`g`ri to`rtburchak chizib, bezakdagi kvadratlar soni qancha bo`lsa, shuncha kvadratlarga

bo`linadi. Agar bezak gulni kattalashtirayotgan bo`lsa, bu kataklar originaldagi kataklardan katta bo`lib, rasm guli kichiklashayotgan bo`lsa, bu kataklar originaldagidan kichik bo`lib chiqadi. Shundan keyin kataklar bo`yicha originaldagi kashta gulning asosiy nuqtalari toza to`rga ko`chiriladi. Bu nuqtalarni ravon chiziq bilan yehtiyotlab birlashtirib bezakning kattalashtirilgan yoki kichiklashtirilgan nusxasi hosil bo`ladi. Rasm nuqtalarini oson topish uchun chizilgan to`rning ikki tomoniga raqamlar qo`yiladi.

**Ўлчов олиш:**















**Bezakni kataklar bo’yicha kattalashtirish va kashtachining ish urnini tashkil etish.**

Kashta tikish qulay bo`lishi, charchatmasligi uchun, ish o`rnini to`g`ri tashkil yetish, mehnat qilishning muayyan qoidalariga rioya yetish kerak.

Asbob va moslamalar qo`yiladigan stol ustidagi ishga yorug`lik chap tomondan tushadigan holatda turishi kerak. Agar stolda yashikcha bo`lsa, unda ip maxsus xaltada, asboblar qutichada, kashta gulli shaffof qog`ozi paketda saqlanishi kerak;

-gavda holatiga ahamiyat berib, bukchaymay, boshni juda past yegmasdan o`tirish kerak;

-ish vaqtida gavda biroz oldinga yengashgan bo`lishi, ko`z bilan ish o`rtasidagi oraliq 25-30 sm dan oshmasligi lozim.

Shu maqsadda ba’zi chambarakni tagiga taxtacha, kitob va hokazolarni qo`yib balandroq o`rnatiladi;

-stulni suyanchig`iga suyanish mumkin bo`ladigan qilib, stolga yaqinroq surib qo`yiladi;

-ish vaqtida qo`lni to`g`ri qo`yish katta ahamiyatga yega;

-chap qo`l chambarak tagida bo`lib, o`ng qo`l chambarak ustida bo`lishi kerak.

Siyrak gazlamaga va to`rga baxyasimon suv chokli kashta tikishda o`ng qo`lda ignani uning uch tomoni bilan kashtaning teskari tomonidan o`tkaziladi. Ignaning uchli tomonini chap qo`lda tutib, uning ko`z tomoni bilan kashtaning o`ng tomoniga chiqariladi. O`ng qo`l bilan ip tortib qo`yiladi. Zich gazlamalarga kashta tikishda, kashtaning o`ngiga ignani uning uchki tomoni bilan chiqariladi.

**Zardo’z tikish texnologiyalarini o’rganish.**

ZARUR XOM-ASHYO VA ASBOBLAR: baxmal, barqut, bo’z, zar iplar, oddiy iplar, ignalar komplekti, chambarak, angishvona, patila va turli qaychilar, karton kabilar.

Nazariy ma’lumotlar

Zardo’ziy-birishimdo’ziy usuli. Zardo’ziy usuli.

1. Mavji yak ro’z - bir yoqlama to’lqin. Bu yeng oddiy va yeng qadimiy gullardan biri. U Buxoro zardo’zligining bizga ma’lum barcha buyumlarida uchraydi. Bunda chatilgan xalqachalar bir-biriga ko’ndalang, yonma-yon chiziqlar shaklida joylashgan. Tushama ustidan ingichka o’rilgan 4-5 qavat zar ip sijiy qo’yilib, zardo’z juni ipak yoki paxta ip yordamida har to’rt baxyaga bir yo’l qilib chatib chiqqan. Tikuvchi xalqalarni zinapoyacha shaklida joylashtirishga alohida ye’tibor bergan. Natijada buyumning yuzasini bir-biriga ko’ndalang qator yo’llar qoplab olgan. Qirg’oqlarida yesa turli uzunlikdagi yensiz yo’l-milk hosil bo’lgan.

2. Mavji du ro’ya -ikki yoqlama to’lqin yoki mavji pushti mohiy-baliq tangachalari. Bu bir-biriga yonma-yon chiziqlar shaklidagi kashta bo’lib, ilgaklarining soniga ko’ra yo ko’proq, yo ozroq darajadagi siniq yo’llarga yega.

3. Mavji ocha-bocha -ona-bola to’lqin. Bu kashtani tikishda navbatma-navbat qilib to’shamaning ikkita yoki to’rtta baxyasi bitta qilib olinadi. Natijada tikilgan yuzada goh qator tor-tor, yassi va qoramtir, goh keng-keng, do’ppaygan va yarqiroq yo’llar hosil bo’ladi. Bu usul ikki xil yo’l bilan tikiladi; Yak ro’ya (bir yoqlama)va du ro’ya (ikki yoqlama).

4. Mavji chashmi bulbul (bulbul ko’zi to’lqin)da chatish ilgaklari kichkina-kichkina to’rtburchak yoki rombchalar hosil qiladi . Mavji yak ro’ya bilan chashmi bulbul zardo’zlikda yeng ko’p qo’llaniladigan gullardan hisoblanadi. Hamma tikilgan buyumlarda uchraydi. Chashmi bulbul aslida du ro’ya uslubidagi kashtachilikka kiradi. Chashmi bulbulni mavji yak ro’ya va mavji du ro’ya bilan chog’ishtirib tikkan zardo’z o’ngga yaqin turli variantlar hosil qilgan.

5. Shash xol ( olti hol). Bir yoki ikki qator to’lqin katakchasi orasiga joylashtirilgan gul. Bu gulning ikkita varianti mavjud bo’lgan; olti baxyalik va sakkiz baxyalik. Shash xol usuli ko’pincha chashmi bulbul kashtasi bilan chog’ishtirib tikilgan.

6. Xishti haram (muqaddas g’isht). Buxoro zardo’zlari mazkur iborani arabcha haram (muqaddas) manosida yekanini aytadilar. Bu kashta boshqa kashtalarga qaraganda juda ham chiroyli yekanini ham ye’tirof qiladilar. Xishti haram kashtasini zardo’zlar bu hildagi kashtalar sirasiga kiruvchi jo’ngina xisht

deb ataluvchi kashtasi bilan aslo aralashtirmaganlar. Bular qatorlari ko'ndalang yo'nalishdagi bir-biriga mindirib tikilgan to'rtburchaklardan iborat bo'lgan.

7. To'rtga to'rt to'lqin zardo'zlik kashtasi. Bu kashta chatish ilgaklari shunday joylashtirilganki, natijada tikilgan yuza huddi to'qilganga o'xshab ko'rinadi. Bu kashta qisman oyoq kiyimlarda, choponlarda hoshiyani chegaralab turuvchi oba yo'nalishlardagina uchraydi. To'rtga to'rt to'lqin piltaning 2 va 4 qavat ipida tikilgan.

8. Mavji hanjariy zardo'zlik kashtasi. Bu kashta yo'l-yo'l qilib kertalgan tanglayga o'xshaydi. Kashtaning bu turi bilan teng yonli uchburchak yoki shunga o'xshagan shakllar ko'rinishidagi uncha katta bo'lmagan yuzalar tikilgan. Bu kashta hyech qanday tayyorgarliksiz, to'shamasiz, bevosita matoning o'ziga tikilavergan. Tikish buyumning chetidan o'rta tomonga yo'nalishda amalga oshirilgan. Zar iplar uchburchak yonlariga parallel ravishda yotqizilgan. Qaviqlar yonma-yon holda turli-turli tomonlarga qarab ketuvchi ko'ndalang yollar hosil qiladi.

9. Shoxcha zardozlik kashtasi faqatgina ayollar va bosh kiyimlarnig qirg'oqlarni, yani hoshiyalarini bezashda ishlatilib shash hol xolnak bilan chog'ishtirilgan.

10. Kandoriy zardo'zlik kashtasi. Bu kashta Afg'onistonning Qandahor shaxri nomidan olingan bo'lib, ustalarning ma'lumot berishicha XIX-asrning ikkinchi yarmidan boshlab o'sha tomondan keltirilgan. Kashta buyumlarning kichik-kichik qismlarini tikishda qo'llaniladi. Qandahorcha chok tikish matoda to'shamasiz tikiladi. Patli, yunli matolarning choki tagidan, zarni orasidan patlarning chiqib qolmasligi maqsadida, oqiga kumush rang, sarig'iga tilla rang bo'z taglik qo'yiladi. Yerkak-ayollarning bosh kiyimlaridagi tagzaminni sidirg'a kashtalashda qo'llaniladi. Kashtaning ikki hil turi bo'lib; tort bahiyali kandoriy va bahyali kandoriy. Kandoriyning asosini to'rtburchakli jingalak –jingalak bo'lib keluvchi zarrin kashta bilan to'ldiriladi. Natijada 4 bahyada tikilgan xonacha solib korinishida, 8 baxyada tikilgan xonacha taralayotgan nur korinishida joylashgan qaviqdan iborat bo'lgan 8 baxyada tikilgan qaviqda nur va soyalar hosil bo'ladi.

Mazkur usulning bir necha turi mavjud bo'lib, shulardan yeng ko'p qo'llaniladigani quyidagilardir; a) o'rtasida qo'ndirmasi bo'lgan kandoriy-kandoriy tilla xondanak, rangli yeshilmagan ipakdan qilingan va b) tangachali kandoriy zar simlardan qilingan. Tangachali kandoriy 8 baxyali tikishda uchraydi.

Mohir zardo'zlar nur va soyalar hosil qilish sanatida, yuqorida qayt yetilgan uslublardan foydalanib, katta mahorat ko'rsatib, turli-tuman yo'llarga solib, ularning hillarini ko'paytirish imkoniga yega bo'lishlari mumkin.

Bizda yeng ko'p qo'llaniladigan kashta gullarini va ulaming turlarini, mohir zardo'zlar turli-tuman yo'llarga solib ularning xillarini ko'paytirish imkoniga yega bo'lganlar.

Zargarlik taqinchoqlariga o'xshash mo'jazgina gullar tagiga ba'zan paxta qo'yib

Darsda tasviriy ko'rgazma sifatida san'atning u yoki bu ko'rinishi tabiatning ma'lum bir obrazini yoritib turishi, illyustrasiya ko'rgazma shaklida olinishi uchrab turadi. Ba'zida faqatgina asarlarning mazmuni aytiladi, uning to'liq tuzilishi, yaratilishi to'g'risida kerakli ma'lumotlar berilmaydi. To'g'ri keladiki, kuzatgan kishi uning qanday turda, janrda yaratilgani g'oyasini ham axtarishiga ham to'g'ri keladi. Kimlardir amaliy san'at asarlariga murojat qilar ekan usta-naqqoshlarning asarlarida nima chizgan va nima demoqchi ekanligiga bilishga harakat qiladi. Birovlar yesa surat "o'xshaydi " yoki "o'xshamaydi" degan gapdan nazarga o'tmaydi. Bunday asarga baho berish me'zoni ba'zilarning asarni kuzatishida ko'rinadi. Shunday bo'lsada amaliy san'at asarlarining umumiy g'oyaviy jihati asosiy o'rinda turishini ham unutmaslik kerak. Asarlarning yaratuvchisi, nomi, yaratilishi, qaysi davr yoki vaqtni o'zida ko'rsatib bera oladi hammasini o'rganishni talab qiladi.

Buning uchun biz ko'rsatganimizdek muammolar hali ko'p ulardan asosiylari asarlarning nus'halari hammaga yetarli darajada yemasligi; Muzeylarning amaliy san'atga oyidi hamma shaharlarda yo'qligi; Ko'rgazmalar ko'pincha talab darajasida yemasligi yoki yo'qligi, xalq ustalari bilan uchrashuvlar muntazam o'tgazilmasligi; Amaliy san'at ustaxonalarida doimiy bo'lmaslik;

Badiiy, xujjatli fil'imlarning amaliy san'at bo'yicha kamligi; San'at asarlarini taxliliga oid kitoblarning yetishmasligi kabi muommolar mavjud.

Ularning hammasini birdaniga bartaraf etish juda qiyin masaladir. Shuning uchun amaliy san'at asarlarini taxlil yetishda naqqoshlarning ijodini, hayot faoliyatini ham qisman o'rganiladi. Ammo, ko'p vaqtlarda faqat asarlargina o'rganib tahlil etiladi. Kollej amaliy san'at darsligi va dasturuda taniqli usta-hunarmandlarning ijodi, asalari tahlili beriladi. Ya'ni, T.Toxtaxujayev,Yu T.Arislonqulov, Q.Haydarov, Q.Qosimov, J.Xakimov asarlari bor. Ularning asarlari o'rganilib ularning tahlili ham qilinadi. Shuning uchun asar muallifi yaratilishi, mazmuni yaxshi yoritilishi lozim.

Amaliy san'at asarlaridan misol qilib oladigan bo'lsak O'zbekiston xalq ustasi T.Arislonqulovning naqsh kompozisiyalari. Asar tarixiy voqiylikga asoslanib o'zida jamlagan xalq ustalarining yaratgan asarlari asrlar davomida o'rganilib kelinadi. Bu O'zbek xalqining iftixori g'ururi, me'moriy binolarda aks ettirilgan. Shuning uchun usta, naqqosh T.Arislonqulov asarlari o'zining yaratilishi bilan o'z davrining yetuk tarixiy manbalarni izlab topish, o'qib – o'rganish kabi jarayonni bosib o'tadi kiyin esa xayoliga, ko'z oldiga keltirgan naqshlar, obrazni bir necha bor xatto yuzlab siymosini eskiz sifatida ishlaydi.

## 2.2. Tikuvchi dizaynerlarni maxsus rasm chizishga o'rgatishning shakl va usullari.

Maxsus rasm chizish ishlari rassomchilik bilan bog'liq ravishda amalga oshiriladi. Hamma tikuvchilar ham rasm chizishni yaxshi bilmasligi mumkin. Lekin kiyimlarni bichish jarayonida ularga malaka bo'lib qolgan xar kungi ishlari kuz ungida doimiy rasmi chizilgan bo'lib turadi.

Quyida biz rasm chizishga va tikishga doir bir necha dars ishlanmalarini keltirib o'tamiz.

Uyga sinf ishini yakundat vaznfa qilib gopshiriladi.

**Darsning mavzusi: Liboslar.**

**Darsiing vazifalari:** O'quvchilarga kiyimlar, xususan milliy kiyimlar haqida ma'lumot berish. O'ebek milliy kiyimlarini idrok etishga o'rgatish. Ularda badiiy estetik didni o'stirish. Bolalarning badiiy fikr doirasini kengaytirish.

**Darsning jihozlanishi:** Uy, jomakor, dam olish, marosim, sport, harbiy, maxsus, milliy o'zbek kiyimlarining suratlari, dialozitialari, slaydlari, rasmlari.

**Darsshshg mazmuni:** Darsni o'qituvchi suhbatdan ko'ra savol javoblar orqali tashkil etishi bolalarning bilishga bo'lgan munosabatlarini faollashtiradi. Shu sababdan ularga quyidagicha savollar beriladi:

kiyimlar qaysi maqsadlarda kiyiladi?

qanday kiyim turlarini bilasiz?

kiyimlar qanday materiallardan tikiladi?

erkaklar va ayollar kiyimlarini qanday farqlash mumkin?

bolalar va kattalar kiyimlari o'rtasida qanday farqlar bor?

turli millat kiyimlari o'rtasida qanday farq bor?

bu kiyimlarda farq bo'lishining sababi nimada?

Bu savollarga javoblardan so'ng muallim o'quvchilarning javoblaridagi kamchiliklarni to'ldiradi, xatolarini tuzatadi, so'ngra u javoblarni umumlashtirib, quyidagi mazmunda suhbat o'tkazadi:

Dastlabki davrlarda odamlar o'zlarini tashqi muhit ta'siridan saqlash maqsadida kiyim kiyganlar. Ba'zi o'lkalarda ayrim xalqlar kiyimlardan bezak maqsadida ham foydalanganlar. Avvallari kiyimlar hayvonlar terisidan, daraxt po'stlog'i va barglaridan tayyorlangan. Keyinchalik ularni yovvoyi, shuningdek, madaniy o'simliklar tolasidan, hayvonlarning juni va mo'ynalaridan ishlashgan.

Har bir xalqda kiyimlar kishilarning yopshga qarab ham bir birlaridan farqlangan. Yoshlarning kiyimlari yorqin rangdagi ochiq, serjilva gulli bo'lsa, katta yoshdagilarniki esa, aksincha, yoshlariga mos holda vazmin, oddiy rangdagi materiallardan tayyorlangan.

Kiyimlarning tuzilishi, rangi, guli, materiali odamlarning iqtisodiy jihatdan ta'minlanishi va xizmat mavqyeiga ham bog'liq bo'ladi.

Kiyimlarning bir necha xillari bo'ladi. Ular bosh kiyimlar, ustki kiyimlar, poyafzallar bo'lib, o'z vazifasiga ko'ra turli materiallardan turli o'lchovlarda tayyorlanadi. Bunda kishilarning jinsi, yoshi, ularni qaysi faslda kiyishi, o'lcho^lari, ularning estetik didi hisobga olinadi. Kiyimlarda havo, nur, issiqlik, nam o'tkazuvchanlik xususiyatlari hisobga olinib, ular o'simlik va kimyoviy tolalar, ipak, jun, mo'yna, teri kabi materiallardan tayyorlanadi. Kiyimlar vazifasiga ko'ra uy kiyimlari, jomakor kiyimlar, dam olish paytida kiyiladigan kiyimlar, marosim kiyimlari, sport kiyimlari, harbiy kiyimlar va maxsus kiyimlarga bo'linadi.

Ko'pchilik kiyimlar har bir xalqning madaniy taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lib, milliy xususiyatga zga. Ular o'z tuzilishi, o'lchovi, materiali jihatidan turlicha bo'lib, mahalliy ob havo sharoitini hisobga olinib tikiladi.

Jomakor kiyimlar esa mehnat jarayonida foydalanish uchun mo'ljallanganligi sababli pishiq, arzon, oddiy matodan tayyorlanadi. Ular har bir kasbning o'ziga xos xususiyatiga qarab, turli rangda va turli pishiqlikda, turli materiallardan ishlanadi.

Masalan, xizmati suv bilan bog'liq bo'lgan ishchi yoki tazmatchilarning (daladagi suvchilar, kemalardagi baliqchi, dengizchilar va b.) kiyimlari suv va nam o'tmaydigan rezina yoki sintetik materiallardan -tayyorlansa, o't o'chiruvchilar, po'lat quyuvchilarning kiyimlari o'tga chidamli materiallardan ishlanadi.

Tibbiyot, oziq ovqat ishlab chiqarish va ular bilan savdo qiluvchi mlar, oshpaz va sartaroshlarning xizmati tozalik bilan nihoyatda bopgiqligi sababli ularning kiyimlari oq, ko'chalarni tozalovchi va remont qyuguvchi xizmatchilarning kiyimlari mashinada kelayotgan shofyorlarga oqdan ko'rinib turishi uchun zarg'aldoqrangda bo'ladi.

Sport kiyimlari ham o'z materiali, shakliga ega. Sport pyyamlarining turli materiallardan ishlanishiga sabab, ular sportchining kaaday ob havoda o'tkaziladigan musobaqada ishtirok etishiga m}xkallangandir. Masalan, qishki sovuq havoda o'tkaziladigan musobaqada vortchnlarning kiyimlari jun materialdan tayyorlangan bo'lishi maqsadga msofms bo'lsa, yozgi issiq kunlarda esa paxta gazlamasidan tayyorlangan arni kiygan ma'qul. Yomg'irli kunlarda yengil sintetik shlardan tayyorlangan kiyimlar qo'l keladi. Shuningdek, sport lrini tayyorlashda ularning

shakliga alohida e’tibor beriladi. Mich.pp, yozgi kunlarda foydalaniladigan kiyimlar kengroq, qishda uchun mo’ljallanganlari esa ixchamroq bo’ladi.

Rasmiy kiyimlarni harbiy xizmatchilar, ichki ishlar va aloqa fMashri, sud va prokuratura, o’t o’chiruvchilar, o’rmon xo’jaligi hodimlari kagar Bunday kiyimlarni shu toifadagi kishilarning xizmat vazifasi mazmunk talab etadi.

Xususan, harbiy xizmatchilarning kiyimlari haqida fikr

■ bo’lsak, avvalo ular boshqa toifadagi kishilardan yaqqo; turyupi uchun rasmiy kiyim kerak bo’ladi. Bunday kiyimla^

■ boshqa talablar bilan bir qatorda qurolli kuchlar va harbi{ I shuhratini qadrlash vazifasini ham nazarda tutadi.

I oyimlarning bir xilda bo’lishligi sanoat korxonalarid. ktusda tezkor.tik bilan ishlab chiqarish imkonini beradi. Qtrodlm k)-chlarda harbiy kiyimlar ustki, bosh kiyim, poyabza] bo’lmvadi. Ustki kiyimlarga shinel, bushlat, plashch, mundir I jamzul, tujurka, shim kabilar kirsa, bosh kiyimlar popok , ambonli va soyabonsiz furashkalar hisoblanadi. Buzardan tashqari. harbiy xizmatchilar ustki ko’ylak, sharq r kyabnsh bilan bir qatorda galstuk, kamar, aslaha anjomlar taqi Shuningdek, harbiy xizmatning qo’shin turlariga qarab kiyi: va rantlari turlicha bo’ladi. Harbiy xizmatdagilarnin qaysn xizmatga mansubligini bildirish uchun harbiy unvo I joriy qshshngan.

Zamonaviy qo’shinlarda harbiy unvon belgilari sifatid bosh kiyim, yoqadagi belgilar, emblemalar, ko’krak va yenp pmyaxadigan belgilar, jiyak va hoshiyalar qo’llaniladi.

Harbiy kiyimlar, shuningdek, parad kiyimlari, kundalik kiyimlar, dapa va ish kiyimlariga, ularning har biri esa yozgi va qishki kiyimlarga bo’linadi.

Harbiy kiyimlar har bir davlatda ijtimoiy iqtisodiy tuzum, qurolli kuchlarning turiga qarab turlicha bo’ladi. Bu kiyimlar rang, shakl, harbiy unvon belgilari, material jihatidan ham bir birlaridan farq qiladilar.

Harbiy kiyim elementlari dastlab qadimgi Misr, Ossuriya, Eron, Yunoniston armiyalarida paydo bo’lgan.

O’zbek millii liboslari boshqa xalqlar kiyimlaridan o’ziniig bir qator xususiyatlari bilan farqlanadi. Bu xususiyatlar, asosan, o’lkaning iqlim sharoiti, tabiati, o’zbek xalqining turmush tarzi va boshqa shu kabi tomonlari bilan belgilanadi. O’zbek milliy liboslari erkaklar, ayollar va bolalar kiyimlariga bo’lingan. Erkaklar oq rangli ko’ylak, yaxtak, ustki kiyimlardan to’n, chakmon kiyishgan va ular astarli va paxtali bo’lgan. Xalatlarning pastki ikki yonida uncha katta bo’lmagan yirtiqchalari bo’lgan va ular yayov yurganda, utirganda, ot minganda kishilarga ma’lum qulailiklar tugdirgan. To’n va chakmonlar duxoba, shoyi, atlas, beqasam, hayvon terisi kabi materiallardan ham gulli, qam gulsiz qilib tikilgan.

Do’ppilarni har bir erkak, shuningdek, bolalar kiyganlar. Ularni O’ebejistonning ayrim viloyatlari, shax$_4$ar va qishloqlarida ayollar h.am kiyganlar**.** Ular o’z shakli, tuzilishi, materiali, tikilishi jiqatdan turli tuman bo’lgan. Masalan, Chust, Toshkent, Marg’ilon, Iroqi va boshqa joylarda keng tarqalgan. Do’ppilarning ustida oq, qizil, zangori, yashil rangdagi, boylar esa, zarli ip bilan tikilgan salla o’raganlar. Yosh yigitlarning sallalari kichikroq, keksalarniki esa kattaroq bo’lgan, shuningdek, mo’yna va jundan tayyorlangan telpaklar qam ksh!ilgan.

Darsda o’tilganlarni mustahkamlash maqsadida o’qituvchi bolalar bilan savol javoblar o’tkazib, ularning materiallarni qay darajada o’zlashtirganliklarini. aniqlaydi va berilgan bilimlarni mustah. kamlaydi. Savollar taxminan quyidagicha bo’lishi mumkin:

1. Liboslarni qanday turlari bor?
2. Liboslar qanday materiallardan tayyorlanadi?
3. Erkak, ayol va bolalarning milliy liboslarida qanday farqlar bor?
4. Kundalik va marosim kiyimlar o’rtasida qanday farqlar bor?
5. Harbiy kiyimlarning o’ziga xos jihatlari qaysilar?
6. O’zbek milliy kiyimlarining viloyatlar bo’yicha bir biridan farqi nimada?

Bu savollar o’z o’rnida tag’in ham maydalashtirilishi va aniqlashtirilishi mumkin. Bolalarning javoblari o’qituvchini,

qoniqtirmagan taqdirda, ularni o'qituvchining o'zi to'ldiradi va xatolarini tuzatadi.

Dars mavzusida tegishli surat va rasmlarni to'plash, ularni albomga yopishtirish, tagiga tegishli ma'lumotlarni yozib qo'yish uyga vazifa qilib topshiriladi.

**Darsning mavzusi: O'zbek milliy liboslari esxizini ishlash.**

**Darsniig vazifalari.** O'quvchilarning badiiy ijodiy qobiliyatlari va rasm ishlash malakalarini rivojlantirish.

Bolalarning milliy o'zbek kiyimlari haqidagi tasavvurlarini boyitish, xalq san'atiga qiziqish uyg'otish.

**Darsning jihozlaiishi.** O'zbek milliy kiyimlarining suratlari, reproduksiyalari, diapozitiv va slaydlari. O'qituvchining o'zi tayyorlagan bir necha milliy o'zbek kiyim eskizlari. Lotin Amerikasi, Afrika, Ovrupo xalqlari milliy kiyimlarining suratlari, reproduksiyalari va slaydlaridan namunalar. Katta yoshdagi erkak va ayol, o'g'il va qiz bolalar gavdasi tasvirlangan rasm.

**Darsning mazmuni** O'qituvchi o'tkaziladigan darsning mavzusini e'lon qilgandan so'ng o'zbek milliy kiyimlari haqida qisqacha suhbat o'tkazadi. Bu suhbatning boshlanish qismida o'zbek milliy kiyimlari bilan bolalar avvalgi darsda tanishganlarini hisobga olib, ularga bir qator savollar beradi. Bundan maqsad bolalarning o'zbek milliy kiyimlari haqidagi tasavvurlarini tiklash va boyitishdan iborat. Xususan, bu borada quyidagicha savollar beriladi:

-qanday o'zbek milliy kiyimlarini bilasiz (erkaklar, ayollar va bolalar kiyimlari haqida alohida alohida to'xtalish zarur)?

-o'zbek milliy kiyimlari boshqa xalqlar kiyimlaridan qaysi jihatlari bilan farq qiladi?

-erkaklar milliy kiyimlari ansambliga qaysi kiyimlar kiradi? Ayollarnikiga chi?

-ayollarning kiyimlarida yosh xususiyatlar qanday hisobga olinadi? Erkaklarnikida chi?

-o'zbek milliy erkaklar kiyimlari bilan ayollar kiyimlari o'rtasida qanday farq bor?

Shundan so’ng o’qituvchi bolalar javoblaridagi kamchilik va xatolarni ko’rsatib, suhbatga yakun yasaydi. U quyidagi mazmunda bo’ladi:

Har byr xalq o’z milliy kiyimlariga ega. Biroq ularning hammasida umumiylik bo’lib, ular bosh kiyim, ustki kiyim, oyoq kiyim, shuningdek, turli tuman taqinchoq kabilarda ko’zga tashlandi.

Bu kiyim va taqinchoqlar majmuasi kostyum (ansambl) deb ataladi. Kostyumda kishi kiygan hamma kiyimlar (bosh, ustki, poyafzal, shuningdek taqinchoqlar) bir biriga shakl, rang, o’lchov jihatidan mos holda tayyorlanadi. Har bir xalqning kostyumlari bir maqsadga qaratilgan bo’lsa da, biroq ular bir biridan farq qiladi.

Hatto, birgina O’zbekistonning har bir viloyatida kiyimlarni birbiridan farq qiladigan tomonlari ko’p, xususan Surxondaryo va Kashqadaryo viloyatlari o’z uslubiga ega bo’lsa, Buxoro va Samarqand boshqa uslubga, Farg’ona vodiysi aholisi yana boshqa uslubga ega. Shunday fikrlarni Qoraqalpog’iston Respublikasi, Xorazm, Toshkent kabi viloyatlarning kiyimlari xaqida ham aytish mumkin

Uzbek xalqi turlicha iqlim sharoitlarida har hil kiyimlar kiygan. Ular erkaklar, ayollar, bolalar kiyimlariga bo’lingan.

Qisqacha suhbatdan so’ng o’qituvchi milliy kiyimlardan namunalar ko’rsatib, ulardan qaysilari qaysi viloyatga tegishli ekanligini, qaysi birlari kambag’allar va qaysilari boylar uchun mo’ljallanganligini aniqlash yuzasidan ko’rsatmalar beradi.

Savol javoblardan so’ng o’qituvchi rasmdagi kiyimlardan 1 2 tasini bolalar bilan birgalikda tahlil etadi.

O’qituvchi bolalarning navbatdagi vazifasi o’zbek milliy kiyimlari eskizini tayyorlashdan iborat ekanligini aytadi. So’ngra o’z ko’rsatmalarini quyidagi mazmunda davom ettiradi:

Bolalar daftarlaringizga doskadagi ko’rgazmali qurolda aks ettirilgan odam qomaty rasmini ishlang, so’ngra uning ustiga o’zingiz xoxlagan o’zbek milliy kiyimlarining rasmini ishlaysiz. O’zbekistonning qaysi viloyatiga xos kiyim ishlamoqchi bo’lsangiz, uning o’ziga xos tomonlarini saqlashga harakat qiling. Shuningdek, rasmingizda kiyimning qaysi mansabdagi yoki xizmatdagi kishilar uchun

mo’ljallanganligini ham yodingizdan chiqarmang. Siz ishlagan kiyim namunasi butun bir ansamblni tashkil etsin.

O’zingiz ishlagan kiyim namunasini betakror bo’lishligiga harakat qilint. U kitoblarda berilgan va men ko’rsatgan qiyimlar tasviridan farq qilsin. Biroq rasmingizda o’zbek milliy kiyimlariga xos xususiyatlar bilinib tursin.

Doskada namoyish etish uchun qo’yilgan kiyim namunalaridan to’la ko’chirib olish mumkin emas, biroq ulardagi ayrimqismlarni, naqsh elementlari, ranglari, shakllardan foydalansa bo’ladi. O’qituvchi shuni ham qayd qiladiki, o’zbek kiyimlarining namunasini yaratish uchun ularni boshqa xalqlarning milliy kiyimlari bilan solishtirib ko’rish kerak bo’ladi. Shu maqsadda o’qituvchi bolalar e’tiborini boshqa xalqlar kiyimlariga qaratadi. Shundan so’ng bolalalar mustaqil ravishda milliy kiyim eskizini yaratishga kirishadilar. Kiyim namunasining rangtasviri o’quvchining ruxsati bilan amalg a oshiriladi. Bunda o’qituvchi har qaysi bolaga alohida yoidashadi. Chunki ijodny ishlar saviyasi hamma bolalarda bir xil bo’lishi mumkin emas Liboslarning namunasini xalq ustalari tomonidan badiiy an’analar asosida tayyorlanishi, kiyimlarning ranglari haqida alohida to’xtalib o’tish pozim. Bunda u o’zbek ustalari yorqin toza ranglarni nihoyatda yoqtirishlarini qa 1ta qayta ta’kidlab o’tadi. Suhbat davomida o’qituvchi bolalarga shuni ham yetkazishi kerakki, kiyimlar namunasini ishlashdan avval \ar bir o’quvchi ularni erkaklargami, ayollargami, qishlikmi, yozlikmi, bahor yoki kuzlikmi, yoshlargami, qariyalargami, boygami, kambag’alishi, ziyoligami yoki amaldorgami, ruhoniygami, oddiy xizmatchi^ami janligini yaxshilab o’ylab olishi kerak bo’ladi. Xuddi shuni hisobga olib, kiyim materiali, uning bezak guli, rangi, kompozisiyasi tanlanadi.

Dars bolalarning ijodin ishlari ko’rgazmasini tashkil etish va muhokama qilish bilan yakunlanadi

Uyga sinf ishini yakunlash vazifa qilib topshiraladi

**Darsniig mavzusi: Chet el xalklari liboslari eskizini ishlash.**

**Darsning vazifalari.** Milliy kiyimlarning turli tumanligi, ayrim xalqlarning milliy kiyimlarining o’ziga xos xususiyatlari bilan tanishtirish. Milliy kiyimlarning

har bir mamlakatning iqlimi, kishilarning yashash sharoitiga bog'liqligi haqida ma'lumot berish. Kiyimlarni idrok etishga o'rgatish, o'quvchilarda badiiy ijodiy faollikni o'stirish. O'quvchilarni estetik ruhda tarbiyalash.

**Darsning jihozlanishi.** Chet el xalqlarining, shuningdek, milliy o'zbek kiyimlarining fotolari. rasmlari. Milliy kiyimlar tasvirlangan slayd, diapozitiv va diafilmlar.

**Darsning mazmuni.** O'qituvchi milliy kiyimlar va ularning tuzilishi, bezak elementlari tasvirlangan ko'rgazmali qurollarni bolalarga namoyish etadi. Ular yirik o'lchovda bo'lishi va hamma o'quvchilarga bemalol ko'rinadigan bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Kiyim eskizlari kichik o'lchovda bo'lishi ham mumkin. Bunda ularning soni ko'proq bo'lishi lozim va ularni qo'ldan qo'lga o'tkazib tanishtiriladi. Kiyimlarning slaydlarini, diapozitiv va diafilmlarini namoyish etish eng samarali vositalardan biridir. Bunday vositalarni o'qituvchining o'zi tayyorlasa ham bo'ladi. Buning uchun oddiy fotoapparatlardan foydalaniladi.

Kiyim tasvirlarini namoyishi ularning tahlyli orqali amalga oshiriladi va u savol javob tarzida o'tkaziladi. Savollar qo'yidagi jihatlarni o'z ichiga olish mumkin:

Bu kiyim qaysi xalqlarga xos deb o'ylaysiz? Nima uchun?

Bu kiyim qaysi tabaqadagi kishilar uchun mo'ljallangan?

Bu kiyim qaysi mavsumda kiyishga mo'ljallangan?

Kiyimni bunday tuzilishda bo'lishligini sababi nimada?

Kiyim taxminan qaysi yoshdagi kishilar uchun mo'ljallangan?

Nima uchun?

Kiyimning badiiy bezagi haqida qanday fikrdasiz? (rangi,

bezak elementi, kiyim turlarinnng shakllari):

Milliy o'zbek kiyimlaridan bu kiynmlarnnng farqi nimada?

Chet el xalqlari kiyimlaridan qaysi biri sizga ko'nroq yoqadi?

Nima uchun?

Bu suhbat jarayonida bolalar tomonidan yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar o'qituvchi tomonidan to'ldirilib va tuzagilib boriladi. Unda chet el xalqlarining kiyimlari haqida fikr yuritish bilan chsgaralanib qolmasdan, balki bolalarni umuman

kiynmlar, milliy o’zbek kiyimlari haqidagi tushunchalarini tiklash, shuningdek ularnn bir birlari bilan solishtirish ko’zlangan maqsadni amalga oshnrnshga samaraln ta’sir ko’rsatadi. Ayniqsa, kiyimlar kishilarnnng yeshnga. gabakaspga karab rangi, guli, materiali jihatidan turlicha tikplishi. bosh kiyim, ustki kiyim, oyoq kiyimlarga bo’linishi kabilar haqida knsqa bo’lsa da to’xtalnb o’tish foydalidir.

Navbatdagi vazifa bolalarnn muaaqid ijodpn ishga o’tishlaridan iborat. Buning uchun o’qituvchi ka.pa o’lchovlagi knshilar qomati (katta yoshli erkak. ayel va o’g’il. qie bola) tasvirlangan rasmni doskaga ilib qo’yadi. Bolalar o’z xohnshlariga ko’ra bu rasmdan birortasini o’e daftarlariga chizalnchar. U o’kuvchi kachta yeshln erkak kpypminpmi. Asl kiyiminimi yoki bolalar kiyimini chizishni maqsad qilib qo’yganligiga bog’liq. Shundan so’ng odam qomati ustiga kiyim tasviri tushiriladi, so’ngra uni bezaklari va ranglari ishlanadi.

Bolalarning mustaqil ishlari ijodiy xarakterda bo’lishligi talab etiladi. Buning uchun bolalar amaliy ishga kirishar ekanlar, o’qituvchi doskada namoyish etilgan ko’rgazmali qurollarni yashirib qo’yadi. Aks holda ayrim bolalar ko’chirib olishlari mumkin.

Uyga sinf ishini davom ettirish va yakunlash topshiriladi.

Tajribalarimizdan ma’lum buldiki tikuvchi dizaynerlar maxsus rasmlar chizishni urganib olishlari ularning turli bichimli liboslarni, kiyimlarni tikishlarida aloxida axamiyatga ega ekan.

**Umumiy xulosalar.**

Tasviriy san’atni yaxshi urganib olish tikuvchilar uchun juda kerak ekanligini bilamiz. Shuning uchun xam darsda tasviriy ko’rgazma sifatida san’atning u yoki bu ko’rinishi tabiatning ma’lum bir obrazini yoritib turishi, illyustrasiya ko’rgazma shaklida olinishi xam mumkin buladi. Shunda faqatgina asarlarning mazmuni aytiladi, uning to’liq tuzilishi, yaratilishi to’g’risida kerakli ma’lumotlar berilmaydi. To’g’ri keladiki, kuzatgan kishi uning qanday turda, janrda yaratilgani g’oyasini ham axtarishiga ham to’g’ri keladi. Usta tikuvchilar amaliy san’at asarlariga murojat qilar ekan usta-naqqoshlarning asarlarida nima chizgan va nima demoqchi ekanligiga bilishga harakat qiladi. Shuning uchun xam

surat “o’xshaydi ” yoki “o’xshamaydi” degan gapdan nazarga o’tmaydi. Tikuvchi dizaynerlar maxsus rasm chizishlari shart qilib qo’yilgan.

1. Tasviriy san’at asarlarning yaratuvchisi, nomi, yaratilishi, qaysi davr yoki vaqtni o’zida ko’rsatib bera oladi hammasini o’rganish va bilish lozim.

2. Shundagina biz ko’rsatganimizdek muammolar hal bulishi mumkin. Ammo ulardan asosiylari asarlarning nus’halari hammaga yetarli darajada yemasligi; Ko’rgazmalar ko’pincha talab darajasida yemasligi yoki yo’qligi, xalq ustalari bilan uchrashuvlar muntazam o’tgazilmasligi;

3. Amaliy san’at ustaxonalarida doimiy bo’lmaslik; Badiiy, xujjatli fil’imlarning amaliy san’at bo’yicha kamligi; Tikuvchilik uchun uni san’at darajasida taxliliga oid kitoblarning yetishmasligi muommolari xam bor.

4. Shuningdek, amaliy san’at asarlarini taxlil yetishda naqqoshlarning ijodini, hayot faoliyatini ham qisman o’rganilsa yomon bulmaydi. Maxsus rasmlar chizuvchilarning asarlari o’rganilib ularning tahlili ham qilinadi.

5. Amaliy san’at asarlaridan misol qilib oladigan bo’lsak O’zbekiston xalq ustasi T.Arislonqulovning naqsh kompozisiyalari. Asar tarixiy voqiylikga asoslanib o’zida jamlagan xalq ustalarining yaratgan asarlari asrlar davomida o’rganilib kelinadi. Shuning uchun usta, naqqosh T.Arislonqulov asarlari o’zining yaratilishi bilan o’z davrining yetuk tarixiy manbalarni izlab topish, o’qib – o’rganish kabi jarayonni bosib o’tadi kiyin esa xayoliga, ko’z oldiga keltirgan naqshlar, obrazni bir necha bor xatto yuzlab siymosini eskiz sifatida ishlaydi. Rassom badiiy asarni kanday urganib taxlil etsa tikuvchi dizaynerlar xam shu kabi ishlarni bajarishlari lozim.

Shuni ta’kidlab o’tishimiz mumkinki, tikuvchi dizaynerlarning hammasi juda yaxshi rasm chizishni bilishlari shart.

## Taklif va tavsiyalar.

1. Tasviriy va amaliy san’at asarlarning yaratuvchisi, nomi, yaratilishi, qaysi davr yoki vaqtni o’zida ko’rsatib bera oladi kiyimlarning milliylik hamda zamonoviylikka daxldorligini o’rganish va bilish lozim.

2. Amaliy san’at asarlari bilan milliy kiyimlarning ko’rinishlarini doimiy tahlil qilib borish. Badiiy, xujjatli fil’imlarning amaliy san’at bo’yicha qismini ko’paytirish, Tikuvchilik bo’yicha kitoblarni tahlil qila olishlik.

4. Amaliy san’at asarlarini taxlil yetishda naqqoshlarning ijodini, hayot faoliyatini ham qisman o’rganish, Maxsus rasmlar chizuvchilarining asarlari o’rganilib ularning tahlili ham qilinishi.

5. Amaliy san’at asarlarini, xalq ustalarining yaratgan asarlarini o’rganish, ularning yuzlab siymosini eskiz sifatida ishlash tikuvchi dizaynerlar uchun katta muvaffaqiyatlar olib keladi.

6. Tikuvchilikka oid hamma jurnallardagi rasmlarni o’rganish va ularning rasmlarini chizilishiga e’tiborni qaratish lozim.

7. Maxsus rasmlar chizishda rassomchilik asarlarini o’rganish va ularning mualliflarini bilish kerak.

8. Dizaynerlarning hamma kiyimlarni tikilishi, bichilishi, chizilishi va o’lchanishini o’rganib borish kerak.

9. Maxsus rasmlar chizish ishlarini dorimiy mashq qilish hamda eskizlar yaratib ulardan tikuvchilikda foydalanish lozim.

## Izohli lug’at (Glosari)

AKVARYEL – (ital. acguerello) – suvda eruvchi bo’yoqlar. Bu bo’yoqlarning ajoyib xususiyati bo’yoq qatlamlarining tiniqligi va mayinligidir. Akvaryelda oq rang bo’lmaydi, uning o’rnida bo’yoqlarning tiniq va yupqa qatlami tagidan ko’rinadigan yoki bo’yalmay qolgan qoIozning rangi xizmat qiladi. o’zbyekistonda akvaryel san’ati rivojini B.xamdamiy, o’.Tansiqboyev, G.SHyevyakov, G.CHiganov, K.CHiprakov, K.Kaydalovlar tomonidan yaratilgan ajoyib asarlarda ko’rish mumkin.

ALLA-PRIMA ital. («a-lya prima»). Tasviriy san’atda, xususan, rangtasvirda «namligicha yozish» - (jivopis po-sыromu) usulini anglatadi.

ALBOM (fran. Albut, lot.  avit. – xat yozadigan oq taxtacha) rasm chiziladigan, shye’r, xotiralar va avtograflar yoziladigan muqovali daftar.

APPLIKATSIYA – (lot. applicatio - yopishtirish) – gazlama, qoIoz va boshqa matyeriallarga rang-barang gazlama, qoIoz bo’laklari, tyeri tikish yoki donli o’simliklar poyalarini yelimlash yo’li bilan naqsh tuzib, badiiy tasvir yaratish.

ARKA – (lot. arcus – yoy, egma) – bino dyevorlaridagi dyeraza va eshik o’rinlarining yuqori qismiga yoki ko’prik tayanchlariga qo’yiladigan yoysimon qurilma.

ASOSIY RANGLAR – rassomlikda asosiy dyeb qabul qilingan uchta rang - qizil, sariq va ko’k.

AXROMATIK RANG– (yunon. achrimatos - rangsiz) bu ranglar bir biridan yoruIlik kuch bilan farq qiladilar. Axromatik ranglarga oq, qora va kul rangning barcha tuslari kiradi.

«B»

BADIIY AKADYEMIYA– tasviriy san’atning eng yirik namoyandalari uyushmasi… san’at masalalari bilan shuIullanuvchi ilmiy nazorat markazi – muassasa…  oliy badiiy o’quv yurti. Birinchi «akadyemiya» XVI asrda Italiyada vujudga kyelgan.

BADIIY QURISH - YASASH (lot. konstriuktio - qurilish). Turli matyeriallardan (rangli karton qoIozlar… yoIoch… tashlandiq matyeriallar… tabiiy matyeriallar… maxsus qurish - yasash to’plamlari va shu kabilar) har xil o’yinchoqlar yasash faoliyatlari tushuniladi.

BATALIYA JANRI – (frants. bataille – jang, urish) – tasviriy san’atning jang, urush manzaralarini aks ettiruvchi turi. Asarlarda, asosan tarixiy ahamiyatga ega bo’lgan jang epizodlari tasvirlanadi. o’rta asrlarda kitoblarga ishlangan anchagina miniatyuralar ham bataliya janriga mansub. (Muxammad Murod, Samarqandiy, Byehzod ijodida.) P.Byennkov, V.I.Ufimtsyev, S.F.Abdullayev, O.Tatyevosyan va boshqa rassomlar bataliya janrining taraqqiyotiga katta hissa qo’shdilar.

BYEZAK – biror narsaga ishlangan naqsh, ziynat, pardoz.

«V»

VITRINA – kitoblar, eksponatlar, turli buyumlarning namunalari qo’yilgan oynavand javon, dyeraza va har xil oynavand qutilar.

«G»

